


XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2024- yil yanvar-mart oylarida kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so'rab 16 544 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi shahrida (2 015 kishi), Koson (1 332 kishi), Qarshi (1 181 kishi), Qamashi (1 159 kishi), Yakkabog' (1 132 kishi), G'uzor (1 085 kishi), Kasbi (1 063 kishi), Shahrisabz (1 006 kishi), Kitob (998 kishi), Nishon (972 kishi) tumanlariga to'g'ri keladi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilgan fuqarolardan 7 895 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko'rsatkich, Qarshi shahrida (777 kishi), Koson (729 kishi), Chiroqchi (583 kishi), Qamashi (525 kishi), Yakkabog' (520 kishi), Qarshi (511 kishi), Kitob (498 kishi), G'uzor (494 kishi), tumanlarida yuqori darajada bo'ldi. O'tgan davr mobaynida bandlikka ko'maklashuvchi markazlarida ro'yxatga olingan fuqarolardan 561 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

**Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari
orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)**




**Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga
ish qidirib murojaat etgan va roʻyxatga olinganlar soni**
(2024- yil 1- aprel holatiga, kishi)

	<i>Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2023- yil yanvar- mart</i>	<i>2024- yil yanvar- mart</i>	<i>2023- yil yanvar- mart</i>	<i>2024- yil yanvar- mart</i>	<i>2023- yil yanvar- mart</i>	<i>2024- yil yanvar- mart</i>
Viloyat boʻyicha:	13 877	16 544	738	561	738	561
shaharlar:						
Qarshi	1 388	2 015	46	16	46	16
Shahrisabz	606	744	36	42	36	42
tumanlar:						
Gʻuzor	988	1 085	59	51	59	51
Dehqonobod	847	652	12	13	12	13
Qamashi	1 019	1 159	51	24	51	24
Qarshi	979	1 181	19	18	19	18
Koson	1 157	1 332	83	43	83	43
Kitob	601	998	3	64	3	64
Mirishkor	612	788	67	62	67	62
Muborak	518	652	21	24	21	24
Nishon	785	972	135	11	135	11
Kasbi	785	1 063	34	19	34	19
Koʻkdala	554	803	25	20	25	20
Chiroqchi	927	962	56	40	56	40
Shahrisabz	1 090	1 006	45	78	45	78
Yakkabogʻ	1 021	1 132	46	36	46	36



**Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ish qidirib
murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi**
(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilib kelganlardan ro'yxatga olinganlar ulushi Qarshi shahri , Koson ,Shahrisabz, Yakkabog' va Qamashi tumanlarida yuqori bo'lgan.


Ish bilan ta'minlangan aholi soni¹⁾

	<i>2023- yil yanvar-mart</i>	<i>2024- yil yanvar-mart</i>
Viloyat bo'yicha:	6 573	7 895
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	779	777
Shahrisabz	226	394
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	556	494
Dehqonobod	324	411
Qamashi	565	525
Qarshi	457	511
Koson	629	729
Kitob	290	498
Mirishkor	254	360
Muborak	253	320
Nishon	336	417
Kasbi	327	458
Ko'kdala	367	454
Chiroqchi	455	583
Shahrisabz	373	444
Yakkabog'	382	520

¹⁾ Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida



Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi (jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Qarshi shahrida, G'uzor, Koson, Qamashi, Shahrisabz, Chiroqchi tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2024- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 594,4 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2024- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Qarshi shahrida 4 925,7 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 137,0 %), Muborak tumanida 4 481,7 ming so‘m (124,7 %) , Nishon tumanida 4 422,2 ming so‘m (123,0 %) va G‘uzor tumanida 4 048,8 ming so‘m (112,6 %) ni tashkil etgan.


Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

*(2024- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
Viloyat bo‘yicha jami	238 329	2 570,0	3 594,4
shu jumladan:			
Sanoat	27 257	467,3	5 714,3
Qurilish	4 439	60,8	4 563,5
Savdo	1 973	18,3	3 085,2
Tashish va saqlash	5 670	104,9	6 166,7
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	102	0,8	2 570,6
Axborot va aloqa	744	19,5	8 741,1
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	1 876	63,5	11 282,2
Ta’lim	114 619	995,5	2 895,1
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	50 702	402,4	2 645,5
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 197	27,7	4 195,6
Boshqa faoliyat turlari	28 750	383,1	4 442,3

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi korxonalari hamda
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Viloyat bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 594,4 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,0 % ga o'sgan.

O'rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilikda 11 282,2 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3,1 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 8 741,1 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,4 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 6 166,7 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 71,6 % ga yuqori), Sanoat sohasida 5 714,3 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 59,0 % ga yuqori), hamda Qurilish sohasida 4 563,5 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 27,0 % ga yuqori) ekanligi kuzatildi.




**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	3 098,1	3 594,4	116,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	4 083,1	4 925,7	120,6
Shahrisabz sh.	2 603,7	3 380,7	129,8
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	3 532,2	4 048,8	114,6
Dehqonobod	3 277,9	3 206,3	97,8
Qamashi	2 253,8	2 630,3	116,7
Qarshi	2 384,9	2 877,5	120,7
Koson	2 494,4	3 062,2	122,8
Kitob	2 450,7	2 755,2	112,4
Mirishkor	2 670,9	2 730,5	102,2
Muborak	3 709,5	4 481,7	120,8
Nishon	4 087,7	4 422,2	108,2
Kasbi	2 501,1	2 781,2	111,2
Ko'kdala	2 353,7	2 702,7	114,8
Chiroqchi	2 613,1	2 937,6	112,4
Shahrisabz	2 371,2	2 790,2	117,7
Yakkabog'	2 286,4	2 624,4	114,8


Ish haqi. 2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lim sohasida 1 862 ta muassasada 114 619 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 48,1 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 995,5 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 38,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 895,1 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga o'sgan.

**Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Hududlar




■ ming so'm



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 43 ta korxonada 27 257 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,4 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 467,3 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 18,2 %) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 714,3 ming so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,3 % ga o‘sgan.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 10 897,3 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3,0 martaga yuqori), Muborak tumanida 7 589,6 ming so‘mni (2,1 martaga yuqori), G‘uzor tumanida 7 238,4 ming so‘mni (2,0 martaga yuqori), Dehqonobod tumanida 6 381,6 ming so‘mni (77,5 % ga yuqori) tashkil etgan bo‘lsa, Qarshi tumanida 2 877,5 ming so‘mni (80,1 %), Qamashi tumanida 2 766,9 ming so‘mni (77,0 %), Shahrisabz shahrida 2 337,8 ming so‘mni (65,0 %) hamda Kitob tumanida 2 079,5 ming so‘mni (57,9 %)ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 106 ta muassasada 50 702 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,3 %) xodim ishlagan bo'lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 402,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,7 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 645,5 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 22,3 % ga o'sgan.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so'mda)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Kosa tumanida 3 098,4 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 86,2 %)ni tashkil etgan bo'lsa, Nishon tumanida 1 745,0 ming so'mni (48,5 %) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



San'at, ko'ngil ochish va dam olish iqtisodiy faoliyat turida 57 ta muassasada 2 197 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 27,7 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,1 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 195,6 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 29,6 % ga o'sgan.


**San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari,
ming so'mda)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 5 272,5 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 146,7 %), Qarshi shahrida 5 033,8 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 140,0 %) ekanligi kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2024- yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)



Sanoat
5 714,3



**Bank, sug'urta, lizing,
kredit va vositachilik**
11 282,2



Qurilish
4 563,5



Ta'lim 2 895,1



Savdo
3 085,2



**Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish**
2 645,5



Tashish va saqlash
6 166,7



**San'at, ko'ngil ochish
va dam olish**
4 195,6



Axborot va aloqa
8 741,1



**Boshqa iqtisodiy
faoliyat turlari**
4 442,3